

AHMAD YASSAVIY IJODINING OZARBAYJON ADABIYOTIDA O'RGANILISHI

Qiyamova Kamola Adham qizi,

O'zMU, Jurnalistika va o'zbek filologiya fakulteti, adabiyotshunoslik:

o'zbek adabiyoti I bosqich magistranti

E-mail: kamolaxonqiyamova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola bizga Ahmad Yassaviy ijodining ozarbayjon adabiyotida qay yo'sinda o'rganilganligi, qaysi jihatlariga e'tibor qaratilganligi, amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi Yassaviy ijodining keng doirada o'rganilayotganligi ozarbayjon misolida ko'rsatib berishdan iborat. Nazariy asos sifatida Nodirxon Hasan, ozarbayjon olimlari: Savalan Farajov, Gulshan Aliyeva-Kangarli, Bahlul Abdulla, Salida Sharipova qarashlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari tasavvufiy shoir Yassaviy ijodining ozarbayjon, umaman turkiy olamga madaniy ta'sir doiralarini, chegara bilmasligini, turkiy xalqlarni birlashtiruvchi xalqa ekanligini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar. Ahmad Yassaviy, hikmatlar, Ozarbayjon tadqiqotlari, shaman-darvesh madaniyati, tasavvuf, g'urbat, she'riyat, an'ana, madaniy ta'sir.

Аннотация. Данная статья знакомит с методами изучения творчества Ахмада Яссави в азербайджанской литературе, с аспектами, которым уделялось внимание, и с проведенными исследованиями. Цель исследования – показать, что творчество Яссави изучается в широком контексте на примере Азербайджана. Теоретической основой послужили Нодирхан Хасан, азербайджанские ученые: Савалан Фараджов, Гюльшан Алиева-Кангарли, Бахлул Абдулла, Салида Шарипова. Результаты исследования раскрывают культурное влияние творчества мистического поэта Яссави на Азербайджан и тюркский мир в целом, его безграничность и объединяющую связь

Ключевые слова: Ахмад Яссави, мудрость, азербайджановедение, шаманско-дервишская культура, мистицизм, изгнание, поэзия, традиция, культурное влияние.

Abstract. This article allows us to get acquainted with the ways in which the of Ahmad Yassavi has been studied in Azerbaijani literature, what have been paid attention to, and the research carried out. The purpose of the study is to show that Yassavi's work is being studied in a wide range on the example of Azerbaijan. The theoretical basis was used by Nodirxan Hasan, Azerbaijani scholars: Savalan Farajov, Gulshan Aliyeva-Kangarli, Bahlul Abdulla, Salida Sharipova. The results of the study are to reveal the cultural influence of the work of the mystical poet Yassavi on Azerbaijan and the Turkic world in general, iaspectsts boundlessness, and its unifying link among the Turkic peoples.

Keywords: Ahmad Yassavi, wisdom, Azerbaijani studies, shaman-dervish culture, mysticism, exile, poetry, tradition, cultural influence.

Kirish. Buyuk Turkiston zamini qanchadan -qancha buyuk shaxsiyatlarni, iste'dod egalarni, so'z zargarlarini, piri-komillarni, valiy zotlarni o'z bag'rida ulg'aytirdi. Ular jahon minbarlarida o'z g'oyalarini, fikrlarini, e'tiqodlarini baralla yoya oldilar. Shunday buyuk insonlatdan biri, hikmat atalmish tasavvufiy she'rlari bilan, tariqati, ta'limoti bilan butun insoniyat rivojiga hissa qo'sha olgan, madaniyatlarni birlashtira olgan murshidi komil Xoja Ahmad Yassaviydir.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Ahmad Yassaviy ijodining ozarbayjon adabiyotida qay darajada o'rganilganligini, o'rganilib kelayotganligini ozarbayjonlik tadqiqotchilarning ishlari tahlili orqali ko'rsatib berishdan iborat.

O'zbekistondagi Yassaviylik bo'yicha dastlabki tadqiqotlar sifatida A. Fitrat, A.Sa'diy, E. Rustamov, I. Haqqul, N. Komilov ishlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. 1995 yili Ahmad Yassaviy ijodiy merosi ilk marotaba dissertatsiya obyekt sifatida tadqiq etildi. Adabiyotshunos I. Haqqulning "O'zbek tasavvufiy she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining bir bobi Ahmad Yasaviyning hayoti, ijodi, tariqatiga bag'ishlangan. Ayniqsa, N. Hasan "Yassaviylikka doir manbalar, va "Devoni hikmat" " nomli doktorlik dissertatsiyasida turkiy xalqlar adabiyotida Yassaviy hayoti, ijodi, ta'limotining o'rganilishiga doir ishlarini ko'rishimiz mumkin.

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati shu yerda ko'rinadiki, hozirgi kunga qadar Ahmad Yassaviy ijodi ozarbayjon adabiyotida qay darajada, qay jabhada o'rganilayotganligi ilm ahliga ma'lum bir tadqiqot ishi sifatida yetkazib berilgani yo'q. Maqsad ham shunga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra Yassaviy hayoti, ijodi, ta'limoti bo'yicha ozarbayjon olimlari tomonidan qilingan ishlar maqolalar va dissertatsiyalarning ayrim boblaridagi fikr-qarashlar, tahlillardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Taniqli ozarbayjonlik adabiyotshunos va shoir Salmon Mumtoz Yassaviy nomini ko'p tilga oladi.

1923-yilda "Maorif va madaniyat" jurnalida chop etilgan "Turkman" shoirlari maqolasida Ahmad Yassaviy haqida ko'p ma'lumot beradi. Ozarbayjon jamoatchiligiga tanishtirishni maqsadga muvofiq deb biladi. So'ngra "Kommunist" gazetasida nashr etilgan "Navoiyning adabiyotimizga ta'siri" maqolasida Ahmad Yassaviy kabi buyuk siymolar haqida kichik-kichik maqolardan tortib katta-katta kitoblarni yozish kerak ekanligini aytadi. Tahlilga tortilgan tadqiqotlar Salmon Mumtoz ta'kidlagan ishlar ekanligini e'tirof etish lozim.

Manbashunoslik asosida yondashuv ushbu jarayonni chuqurroq ochib berish imkonini beradi, chunki bu yo'l bilan qilingan ilmiy ishlarni ko'zdan kechirib, taqdim etish mumkin. Tadqiqot doirasida qo'yidagi savollarga javob izlanadi:

1. Ozarbayjon adabiyotida kimlar Ahmad Yassaviy ijodini o'rgangan?
2. O'rganilish doirasida qaysi jihatlarga e'tibor qaratishgan?
3. Tadqiqot qanday ilmiy ko'rinishda namoyon bo'lgan?
4. Ozarbayjon adabiyotida Ahmad Yassaviy ijodi o'rganilishi nima uchun kerak? v.h

Adabiyotlar sharhi. Ahmad Yassaviy hayot va ijodining o'rganilishi bilan bog'liq ozarbayjon olimlarining maqola va ilmiy ishlari bilan tanishib ularning ishi tahlilga tortildi. Filologiya fanlar doktori, dotsent Salida Sharipovaning "Ma'naviy madaniy boyliklarimiz: Ahmad Yassaviyning badiiy va falsafiy-diniy merosi" nomli maqolasida Yassaviyning badiiy ijodi janr va uslubi jihatidan yangiliklar kiritganligi, Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida maxsus janr tizimlarining shakllanishiga turtki bo'lganligi, ("Vujudnoma" asosida ochib beradi), o'zi yozgan she'r va manzumalarni

hikmat deb atagani, Xalq she'riyati an'alariga muvofiq yozgan she'rlarining aksariyati yetti ($4+3=7$) va o'n ikki ($4+4+4=12$) bo'g'indan iboratligi, ijodida aruz vaznida yozilgan she'rlar ham uchrashi haqidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Yassaviy hikmatlaridagi "g'arib", "g'ariblik" obrazlariga e'tibor qaratadi. "Ramziy-irfoniy" tabiati bilan "g'arib" obrazi ona yurtidan ajralib, uni sog'inga insonga aytiladi. So'fiy adabiyotida "g'ariblik" mavzusida ba'zan ruh bu foniy dunyoda mehmon degan fikr bilan aloqador. Ruh sayohati qalb sayohatidir. Ruhning sayohati Allohga yetib borishda muhim rol o'ynaydi. Ahmad Yassaviyning "G'ariblar" radifli she'rida "g'arib" obrazi Allohga yetib borish uchun jonini fido qiluvchi inson sifatida, "g'ariblik" esa har kim ham davom ettira olmaydigan mashaqqatli hunar sifatida talqin qilingan". Ahmad Yassaviy Xorazm, Shom, Iroqqa qilgan sayohatlari davomida g'ariblik hislarini o'z boshidan kechirganligi, she'rlariga shu tuyg'ularni ko'chirganligi uchun ham asarlari qiymatini oshirgan. Tasavvufda shunday bir qarash bor - Inson dunyoga kelgan paytdanoq butun o'zidan - "Vujud" deb nom berilmish Allohdan ayrilish vaziyatida bo'lishi bilan u g'urbatga tushadi. Inson Allohga birlashganiga qadar sufi g'arib bo'ladi. G'ariblikda kechgan yo'li uni Allohga yetib borgunicha takomillashtiradi, sinovlardan o'tkazadi. Tasavvufda "Vahdatul-vujud" degan tushuncha bor. Bu bandaning Alloh bilan birlashuvi va g'aribning ham maqsadi shunga erishish. Taniqli folklorshunos olim Bahlul Abdullaning "Yassaviylik va Ozarbayjonda shaman-darvish madaniyati" maqolasida Dada Qo'rqutning buyuk shaman bolganligi bilan bir qatorda Yassaviyda ham bu xislatlar borligi aytib o'tiladi. Shamanizmni tavsiflovchi asosiy jihatlardan biri shamanning sehrgarlik ustasi va mo'jizalar ko'rsata oilishi bilan belgilanadi. Buning dalili sifatida bir hikoya keltirib o'tiladi. Unda Yassaviy otasidan qolga sharfni boshiga yopib duo qiladi. Bu payt osmonni qora bulutlar qoplab yomg'ir yoga boshlaydi. Hamma yerni suv bosadi. Sharifni boshidan olgandan so'ng esa yomg'ir to'xtab, havo musaffolashadi. Odamlar atrofga qarashsa ularga noqulaylik tug'dirgan Qorajuk tog'i g'oyib bo'ladi. "Shamanlar islom dinini qabul qilgandan so'ng, ularning g'oyalarini xalqqa darveshlar yetkazib turishgan. Shunday bir paytda Yassaviy o'z tariqatini yaratadi va so'fiyona ruhda she'rlar yoza boshlaydi. U o'zining "Hikmatlar" asarini xalq adabiyoti va shoir she'riyatiga mos ravishda yozgan va o'z g'oyalarini shogirdlari- darveshlar yordamida butun mamlakat bo'ylab tarqatgan". Savalan Farajov "Ahmad Yassaviy daryosi" maqolasida ko'proq hayot yo'li, dunyoda tutgan o'rni, kasbi, qabri haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Tadqiqotchimiz Yassaviy haqida shunday deydi: "Turk xalqlarining dunyo madaniyatig, insoniyat tafakkuriga ta'sir etgan buyuk shaxsiyatlar orasida hatto tiriklik chog'idayoq amallari haqida afsonalar tarqalgan mashhur mutafakkir, shoir Xoja Ahmad Yassaviyning alohida o'rni bor. Uning Haqqa intilish yo'lidagi haqiqiy ishq fidoisi, tariqat yo'l boshchisi sifatida tanilib, sevilishida e'tiqodining mustahkamligi, dunyoga befarqligi asosiy rol o'ynaydi" Maqolada Xatoiy, Fuzuliy kabi mumtaz shoirlar, shuningdek, Diriliy Qurbani, Abbos Tufarganli va boshqa so'z san'atkorlarining asarlaridagi so'fiylik motivlari Ahmad

Yassaviy ijodidan kelib chiqqanligi aytib o‘tiladi. Ayni shu yerda adabiy ta’sir ko‘rinadi. Filologiya fanlar doktori, professor Gulshan Aliyeva-Kangarlining “Sufizm” monografiyasida mashhur sufiy shoirlar- Maragali Avhadi, Nizomiy, Fuzuliy, Nasimiylar qatorida Ahmad Yassaviy haqida ham ma’lumotlar berib o‘tadi. O‘z ishida Abdulla Shaiq, Bahlul Abdulla, Yashar Qorayev, Alibey Husaynzodalarning Yassaviy ijodiga bergan e’tiroflarini keltirib o‘tadi. Yashar Qorayev: “Yassaviylik, avvalambor, madaniyat hodisasidir. Bu turkchilik sivilizatsiyasiga beradigan diniy-ma’naviy qadriyat, boylikdir”.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi manbashunoslik, matniy-tahliliy, komprovistik, metodlarga asoslanadi. Asosan, tahliliy metoddan ko‘proq foydalanildi. Bu medod orqali Ozarbayjon adabiyotshunoslari tomonidan Ahmad Yassaviy tomonidan berilgan ilmiy baholarni chuqur tahlil qilishda foydalanildi. Tadqiqot ishimizda ularning ishlari bo‘yicha umumiy ma’lumotlar berishda qo‘l keldi. Manbashunoslik metodi orqali manbalar o‘rganildi. Madaniy-tarixiy metod yordamida Ahmad Yassaviy ijodining turkiy xalqlar, jumladan, Ozarbayjon adabiy-madaniy muhitiga ta’siri o‘rganildi.

Qo‘llanilgan metodlar:

Matniy-tahliliy metod;

Manbashunoslik metodi;

Qiyosiy-tarixiy metod;

Madaniy-tarixiy metod;

Retseptiv-estetik metod;

Tadqiqot mobaynida qo‘llanilgan bu metodlar ishni izchil ravishda ko‘rsatib beriah imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot jarayoni Ahmad Yassaviy ijodining o‘rganilishi bo‘yicha ozarbayjon adabiyotchilarining ilmiy ishlarini baholashdan, ularni tahlil qilish, bu orqali Yassaviy ijodining bahosini yanada yuqori baholanishini ko‘rsatib berishdan iborat. Tadqiqot davomida erishilgan natijalar:

Ozarbayjon olimlarining ishlari ilk marotaba tadqiq etilishi va bu Yassaviy ijodining kengroq doirada o‘rganilishi uchun manba bo‘lib xizmat qilishi;

Savalan Farajovning tadqiqoti Ahmad Yassaviyning ijodi turk xalqlarining madaniyatiga, birlashuviga ta’sir qilganligini ochib berishda muhim manba hisoblanishi;

Uslub, janrlar, shaman-darvesh, tasavvufiy g‘oyalari orqali adabiy-madaniy ta’sir doiralarini ko‘rishimiz mumkinligi;

Ozarbayjon shoirlarining so‘fiylik motivlarining ildizari Yasaviyga borib taqalishi;

Yassaviy tili, uslubi xalqqa yaqinligi, hikmatlaridagi g‘oyalar, qarashlar, fikrlar barcha zamon-makonda birdek qadrlil, ahamiyatli ekanligi;

Bahlul Abdulla tadqiqoti “g‘arib”, “g‘ariblik” obrazlarini ochib berilganligi;

Dada Qurqut, shomonizm, Yassaviyning karomat sohibi ekanligi ishonchli dalillar bilan ko‘rsatilganligi;

Munozara. Asosiy natijalar shuni ko'rsatadiki, Yassaviy ijodi ozarbayjon adabiyotshunosligini o'tgan asrlar mobaynida qiziqtirib kelgan. Yuqorida keltirilgan Salmon Mumtozning fikrlari gapimizni tasdiqlaydi. Hozirgi kunda ham Yassaviylik bo'yicha qilinayotgan ishlar sanog'iga yetib bo'lmaydi. Ozarbayjon tadqiqotchilarining ishlari dengizdan tomchi xolos. Maqolada tomchiga qarab dengizni his qilishga harakat qilindi. Yassaviy ijodi bo'yicha qilingan maqolarda uning adabiy-madaniy ta'sirini, madaniyatlar birlashuviga sababchi ekanligiga guvoh bo'ldik. Savalan Farajov, Bahlul Abdulla, Salida Sharipova, Gulshan Aliyeva- Kangarli ishlari orqali ozarbayjon adabiyotida Yassaviy ijodining o'rganilishini ko'rsatib berishga erishdik. Tadqiqot davomida mavzu yuzasidan manba topish qiyin bo'ldi. Chunki bu mavzu bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida deyarli ishlar qilinmagan. bo'lsa ham, O'rganilgan tadqiqotlarda Aksariyat ma'lumotlar Yassaviyning hayoti va tariqati, ta'limotiga oidligi, ijodining o'rganilishiga kam e'tibor berilganligi tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadni yoritishda biroz mehnat talab qildi. Shundayn manbalar bo'yicha batafsil yoritishga harakat qilindi. O'zbekistonda Ahmad Yassaviy ijodining turkiy adabiyotshunoslikda: turk, ozarbayjon, turkman, boshqird, tatar, qirg'iz, qozoq, tatar o'rganilishiga doir tadqiqot ishlarini ko'paytirish, ularni ilm ahliga taqdim etishda jonbozlik ko'rsatish lozim. Bu Yassaviylik bo'yicha keng imkoniyatlarni, manbalarni beradi. Boshqa turk mamlakatlari qaysi jihatlariga e'tibor qaratmoqda, qay jabhada o'rganib kelmoqda, keng ommaga nimalarni taqdim etmoqda- bulardan boxabar bo'lish, kelgusi O'zbek Yassaviyshunosligining rivojlanishiga katta turtki bo'ladi.

Xulosa. Yassaviy ijodining ozarbayjon adabiyotida turli yo'sinda o'rganilganligi uning qanchalar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Nafaqat ozarbayjonda balki dunyoning turli mintaqalarida Yassaviy ijodi, ta'limotiga bo'lgan qiziqish, talab ortsa ortib bormoqdaki, aslo kamaygani yo'q. 2016-yi YUNESCO tomonidan "Xoja Ahmad Yassaviy yili" deb e'lon qilingani ham fikrimizning yorqin isboti. Bu munosabat bilan TURKSOY tashkiloti va turkiy mintaqalarda turli tadbirlar o'tkazildi. Yassaviy bo'yicha konferensiyalar tashkil etilib, Yassaviy bo'yicha ilmiy ishlar yozildi. Tadqiqotda Yassaviyning turk dunyosi, xususan, ozarbayjon dunyosiga ta'sir doirlari yoritilgani bejiz emas. Albatta, Yassaviyning ijodi bo'yicha qilingan ishlarni o'rganilish ko'lamini kengaytirish, ilm ahliga yetkazish ilm ahli oldidagi vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasan, Nodirxon. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat". O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. - Toshkent: Akademiya nashri, 2012. - 304 b.
2. Bəhlul Abdulla. Yəsəvilil və Azərbaycanca şaman-dərviş mədəniyyəti. Ədalət. - 2018. – 21 fevral. - S.7.
3. Gülşen Əliyeva-Kəngərli. Süfizm. Monoqrafiya.
4. Savalan Fərəcov. Ahmed Yəsevi dəryası.
5. Salidə Şərifova. Mənevi-mədəni qaynaqlarımız: Əhmet Yəsəvinin bədii və fəlsəfi- dini irsi. 525-ci qəzət. - 2016.- 6 may.- S.4.